

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORİYASI

"Tasdiqlayman"
O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori

K.T.Urinbayev

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va
innovatsiyalar vazirligi

M. Dany

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi

M. Dany

2025-yil

« 17 » 06 2025-yil

« 17 » 06 2025-yil

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI

60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)
ta'lif yo'nalishi uchun

Toshkent – 2025-yil

Dastur Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti Kengashining 2025-yil 30-maydag'i 11-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
“Maqom xonandaligi” kafedrasi professori, “O'zbekiston xalq artisti,
O'zbekiston qahramoni M.Yo'lchiyeva

O'zMMSI “Maqom xonandaligi”
kafedrasi dotsenti v.b M. Vaisov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
“Maqom xonandaligi” kafedrasi mudiri
v.b, dotsent v.b, U.Rasulov

Taqrizchilar:

Taqrizchilar:

Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy
musiqa san'ati instituti professori,
O'zbekiston xalq xofizi

Erkin Ro'zimatov

Taqrizchilar:

O'zDSMI “Milliy qo'shiqchilik”
kafedrasi professori, O'zbekiston xalq
xofizi B.Do'smurodov

Kirish

60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lím yo'nalishi bo'yicha 1-ijodiy imtihon "Maqom yakka xonandaligi" hamda 2-ijodiy imtihon "Solfedjio va musiqa adabiyoti" fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini hamda nazariy bilimlarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Ushbu ta'lím yo'nalishi bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar quyidagi tartib bo'yicha o'tkaziladi:

- 1-ijodiy imtihon "Maqom yakka xonandaligi" fani (amaliy)
- 2-ijodiy imtihon "Solfedjio va musiqa adabiyoti" fani
 - a) "Solfedjio" (amaliy)
 - b) "Musiqa adabiyoti" (og'zaki)

1. "Maqom yakka xonandaligi" fanidan ijodiy imtihon maqsadi va vazifalari

60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lím yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar umumiy tayyorgarlik darajasi, ijodiy qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi hisobga olingan holda me'yoriy dastur asosida baholanadi.

"Maqom yakka xonandaligi" fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega ekanliklari va o'zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iborat. Alovida e'tibor professional darajali ijroni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. "Maqom yakka xonandaligi" fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati, tarixi, rivojlanish pog'onalarini xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga turli musiqiy janrlar yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lím yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida kirish imtihonlari talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

Abituriyent ijodiy imtihon komissiyasiga quyida ko'rsatilgan shakldagi asarlarni taqdim qilishi lozim:

- 1 ta turkum shakldagi maqom asari;
- 1 ta xalq ashulasi;
- 1 ta bastakorlar ijodiga mansub asar;

O'qishga kiruvchiga mazkur shakldagi ijro dasturini namoyish etishi uchun 30 daqiqagacha bo'lgan vaqt ajratiladi.

Ijro dasturi

60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lif yo'naliishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlardan tayyorlangan ijro dasturlarini yakka tarzda, jo'rnavoz jo'rningida yoki o'zi cholg'uda jo'r bo'lib yoddan ijro etib berishlari talab etiladi.

Abituriyent asarning musiqiy matnini xatosiz, sur'atini nota matnidagi ko'rsatilganidek, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ifoda etgan holda talqin etib berishi zarur. Asarni ijro etishda musiqiy ifoda vositalarining qo'llanishi, ovoz diapozoni, tembri va uni to'g'ri boshqarish hamda ijro sifati asosiy ahamiyatga ega.

Taxminiy ijro dasturi

1. Mukammalligi o'rtacha bo'lgan Shashmaqom tarkibidagi turkum asarlar yoki Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari yoki Xorazm maqomlaridan biri. Masalan: Saraxbor, Talqin yoki Nasr, Savt yoki Mo'g'ulcha, Dugoh Husayniy, Bayot, Chorgoh turkumlaridan biri va h.k.

2. O'zbek xalq ashulalaridan biri (Mahalliy uslublarga xos) Masalan: "Ko'cha bog'i I-II", "Giry'a I-II", Fig'on I-II", "Adoiy va Asiriy", "Miskin", "Suvora", "Savti suvora", "Munojot", "Tanovor" va h.k.

3. Bastakorlik ijodiyotidan (Mahalliy uslubga xos) Masalan: "Naylayin", "Koshki", "Ey sabo", "Dog'man", "Ko'rsatmagay", "Topmadim", "Aylagach" "Otmagay tong" va shu kabi

BAHOLASH MEZONI

"Maqom yakka xonandaligi" fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Nº	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar g'azal matnining to'g'ri va yoddan ijro etilishi	10,0 ballgacha
2.	Ovoz diapozoni, tembri va uni to'g'ri boshqarish	10,0 ballgacha
3.	Artikulyatsiya (talaffus) talablarining bajarilishi	10,0 ballgacha
4.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi (asar matniga munosabati, badiy-estetik qiymatini saqlash)	10,0 ballgacha
5.	Nafasni to'g'ri iqtisod qilish va qo'llash	10,0 ballgacha
6.	Intonatsiya sofligi (parda sofligi va h.k.)	10,0 ballgacha
7.	Asar ijro talqini (shaxsiy ijro uslubiga xos maktablar misolida)ni ochib berish	10,0 ballgacha
8.	Asarning original sur'atni saqlagan holda ijro etish	10,0 ballgacha
9.	Sahna madaniyati (libos, ozini munosib tutishi, gavdani tik turishi va h.k.)	7,0 ballgacha
10.	Asarni cholg'u sozi chalib kuylash	6,0 ballgacha

Jami:

93.0 ball

“Maqom yakka xonandaligi” fanidan to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – 93.0 ball.

2. “Solfedjio va musiqa adabiyoti”

a) “Solfedjio”

“Solfedjio” fanidan abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Solfedjio” fanidan o‘rta maxsus ta’lim o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lganligi ya’ni notaga qarab kuylay olishi, musiqiy-nazariy va amaliy ko‘nikmalarni belgilangan talablarga muvofiq namoyish eta olishi talab etiladi.

Solfedjio fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. Notaga qarab bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash.
2. Intervallar hamdaakkordlarni eshitib aniqlash.
3. Maqom jinslari (lad)ni, eshitib doyrada usul chalib kuylash.

BAHOLASH MEZONI

“Solfedjio” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Nº	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Notaga qarab bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash:	
a)	Tonallikni to‘g‘ri aniqlash.	5 ballgacha;
b)	Sof kuylash.	5 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish.	5 ballgacha;
d)	Xalq ladlarida transpozitsiya qilib kuylash.	5 ballgacha;
2.	Intervallar vaakkordlarni eshitib aniqlash.	5 ballgacha;
3.	Maqom jinslari (lad)ni, eshitib doyrada usul chalib kuylash.	8 ballgacha
Jami:		33,0 ball.

“Solfedjio” fanidan to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – 33,0 ball.

b)“Musiqa adabiyoti”

Kollokvium tarzidagi suhbatda abituriyentning “Musiqa adabiyoti” fanidan jahon, rus, o‘zbek musiqasi tarixiga hamda bastakorlik ijodiyotiga oid bilim darajasi baholanadi. O‘g‘zaki ravishda savollarga beriladigan javoblarda mavzuning mazmun-mohiyati ochib berilishi talab etiladi.

BAHOLASH MEZONI

“Musiqa adabiyoti” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan berilgan og‘zaki javoblar quyidagi mezon asosida baholanadi:

Nº	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	O‘zbek musiqa adabiyoti hamda bastakorlik ijodiyotidan savollarga javob	15 ballgacha;
2.	Rus musiqa adabiyotidan savollarga javob	7,5 ballgacha;
3.	Chet el musiqa adabiyotidan savollarga javob	7,5 ballgacha;
Jami:		30,0 ball.

“Musiqa adabiyoti” bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – 30,0 ball.

Mazkur ta’lim yo‘nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo‘yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Apellatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining appelyatsiyalar bilan ishslash hay’atiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin va arizalar o‘natilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

**60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi
Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga**

T A Q R I Z

2025-yilgi 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) kirish imtihoni dasturi yaxshi tuzilgan va O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidalariga to‘liq mos keladi.

Dasturda abituriyentlarning maqom yakka xonandaligi bo‘yicha ijodiy ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari aniq belgilangan. Ijro dasturidagi uch xil asosiy talablar — murakkablik darajasi o‘rtacha bo‘lgan maqomlar, xalq asarlari hamda bastakorlar asarlari — ta’lim yo‘nalishining kasbiy xarakterini ochib beradi.

Baholash mezonlari esa ijro mahoratidan tortib, nazariy bilimlar, ovoz texnikasi va hatto abituriyentning tashqi ko‘rinishigacha qamrab olganligi, tanlangan asarlarning talabga muvofiq bo‘lishi, shuningdek, musiqa nazariyasi va musiqa adabiyoti fanlariga oid savollar orqali bilimlarni to‘liq aniqlash imkonini yaratadi.

Apellyatsiya tartibi belgilanganligi, abituriyentlarga adolatli baholashni ta’minlaydi va shaffoflikni oshiradi.

Umuman olganda, dastur oliy ta’limning kasbiy-ijodiy imtihonlariga to‘liq javob beradi, o‘quv jarayoniga sifatli kadrlarni jalb qilishga xizmat qiladi. Rivojlantirish uchun esa texnik jihozlar va ijrochilar uchun maxsus sharoitlar yaratish bo‘yicha tavsiyalar berilishi mumkin.

**Yunus Rajabiy nomidagi O‘Z.M.M.S.I
professori**



E.Ro‘zimatov

**60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi
Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga**

T A Q R I Z

Kirish imtihoni dasturi 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) yo‘nalishi uchun puxta va tizimli shakllantirilgan. Imtihon mezonlari o‘zbek maqom san’ati an’analariga va zamonaviy ta’lim talablarga mos keladi.

Ijodiy imtihonlarda abituriyentlarning ijro mahoratini, nazariy bilimlarini va musiqiy savodxonligini har tomonlama baholash imkonini beradigan mezonlar mavjudligi dasturning kuchli jihatlaridan biridir. Shuningdek, musiqa adabiyoti va nazariyasi fanlaridan og‘zaki savollar o‘tkazilishi ijodiy va intellektual salohiyatni aniqlashga xizmat qiladi.

Abituriyentlarga ijodiy ishlarini namoyish etish uchun yetarli vaqt ajratilishi, imtihon jarayoni shaffofligi va apellyatsiya tartibining belgilanganligi ham dastur sifatining yuqori darajasidan dalolat beradi.

Taqdim etilgan mezonlarda ayrim baholash yo‘nalishlarida — xususan, ovoz texnikasi va ijroda so‘z matinlarining ravonligiga alohida e’tibor berilganligi bu yo‘nalish uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, dastur nafaqat oliy ta’limga kiruvchi abituriyentlarning ijodiy salohiyatini adolatli va samarali baholashga, balki an’anaviy vokal san’atining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Kelajakda imtihon jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va baholash mezonlarini yanada takomillashtirish tavsiya etiladi.

O‘zDSMI “Milliy qo‘shiqchilik”
kafedrasi professori

Imzo

Tasdiqlayman: XB bosqiliq

“ ”

2025-yil.

B.Do‘stmurodov

